Kompetentlikka yo'naltirilgan darslarni tashkil etish va darslarning texnologik xaritasini yaratish bo'yicha xalq ta'limi tizimida faoliyat olib borayotgan pedagoglarga kompetentlikka yo'naltirilgan darslarni tashkil etish bo'yicha ma'lumotlarni berish va uni tushunarli tarzda yetkazish."Kompetentlik" (ingl. "competence" - "qobiliyat") - faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish demakdir."Kompetentlik" tushunchasi ta'lrim soxosiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishi shi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi. Ma'lumki, umumiyo o'rta ta'lrim maktablari zimmasiga ta'lrim-tarbiya jarayoni orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalar, jumladan, kommunikativ, axborot bilan ishlay olish, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, umummadaniy kompetensiyalar, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyalarini tarkib toptirish vazifasi yuklatilgan. Ta'lrim-tarbiya jarayoniga kompetensiyali yondashuv o'qitish maqsadlariga erishish uchun ta'lrim mazmunini boyitish o'quv jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish va natijalarini tahlil etishga imkon beradigan umumiyo prinsiplar yig'indisi sanaladi.O'quvchilarning mustaqil hayotdagi turli faoliyat va yo'nalishlardagi muammolarni o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalar, o'zlarining hayotiy tajribalari, kuzatishlari, shaxsiy xulosalariga asoslanib hal etish, muammoli vaziyatlarda talab etiladigan faoliyatni maqsadga muvofiq bajarish qobiliyatlarini rivojlantirish; Texnologiya ta'lrim mazmunini tanlash va metodik ta'minotini yaratishda o'quvchilarning qiziqishlarini orttirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, axloqiy, g'oyaviy-siyosiy, ekologik muammolarni hal etish, didaktik jihatdan qayta ishlangan o'zida o'quvchilarning avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llash, o'zlarining hayotiy tajribalari, kuzatishlari yuzasidan ilmiy xulosalar chiqarishga imkon beradigan o'quv topshiriqlari bo'lishiga e'tibor qaratish; Texnologiya ta'lrim-tarbiya jarayonini tashkil etishda asosiy maqsad o'quvchilarda DTS bilan me'yorlangan bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish, shuningdek, axborot bilan ishlash, kommunikativ ko'nikmalarni egallah, matematik savodxonlik, ijtimoiy faollikka ega bo'lish, o'quv muammolarini mustaqil hal etishga doir tajribalarni egallahlariga sharoit yaratish; Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'na-lish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatidaqo'llay bilishni taqozo etadi. Kompetensiya – bilim, malaka va shaxsiy sifatlarini ma'lum sohada mufaffaqiyatli faoliyat uchun zarur



bo'ladigan qobliyatlar majmui. Bugungi kunda ilm-fan, texnika va axborot kommunikasiya texnologiyalar, ishlab chiqarish soxalarining tez sur'atlarda jadallik bilan rivojlanishi ta'lim tizimi xodimlaridan ta'lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, bunda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishni talab etib, xar bir tizim xodimi, ayniqsa o'qituvchilar zimmasiga yanada yuksak mas'uliyat va vazifalarni yuklaydi.Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya ishlarining har bir shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini ko'zlagan xolda amalga oshirilishi, ta'limning xamma uchun tengligini ta'minlanishi, o'quvchilarni mustaqil xayotga tayyorlash, ularda fuqarolik tuyg'usi, oila va davlat oldida mas'uliyat xis qilish ko'nikmalarini shakllantirish, ularning qizikishlari va qobiliyatlarini rivojlantirish, zamonaviy bilimlarni egallashlari va xar tomonlama rivojlanishlari uchun ularga maksimal darajada qulay sharoitlarni yaratish ta'lim sifatini oshirishning eng muxdm omili xisoblanadi. Agarda bunday sharoitlar yaratilmasa, uzlusiz ta'lim tizimidagi majburiy bosqich bo'lgan umumiy o'rta ta'limni muvaffaqiyatli deb e'tirof etib bo'lmaydi. Shu jixatdan, innovatsion texnologiyalar asosida ta'lim jarayonlari sifat va samaradorligini oshirish muammosi shaxsni rivojlantirish va uni xayotga tayyorlashga yo'naltirilgan kompleks vazifalarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lib, ta'lim siyosatining bugungi kundagi muxim vazifalaridan biri xisoblanadi.Ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan innovatsion pedagogik faoliyat o'qituvchilarning ilmiy-metodik faoliyati xamda o'quvchilarning o'quv-tadqiqot faoliyati bilan uzviy bog'liqidir. Ko'p hollarda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni tatbiq, etganda, birinchi o'ringa texnik va taskiliy masalalar, keyingi o'ringa esa o'qituvchi va o'quvchilarni innovatsion jarayonlarga tayyorlash masalalari qo'yiladi. Innovatsiyalarni tatbiq etishga o'qituvchilarning psixologik tayyorligi pedagogik innovatsion jarayonning muxim sharti hisoblanadi. Shuning uchun, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni tatbiq etishda o'qituvchilarning ilmiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish, kasbiy faoliyatini innovatsion yo'naltirish, ularni innovatsion pedagogik jarayonlarga tayyorlash masalalariga alohida axamiyat qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T.: "O'zbekiston", 2016.-56 b.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli Qarori. – T.: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 14-son, 230-modda.

3. Sharipov Sh.S. va boshqalar. Mehnat ta'limi: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinf uchun darslik. – T.: "Sharq", 2012.-240 b.

4.Qo'ysinov O.A., Tohirov O'.O., Mamatov D.N., Aripova D.F. Mehnat ta'limi. 5-sinf. // O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – T.: "POYTAXT-PRINT" MCHJ, 2016.-176 b



ТИРКАМАЛАРДА ТАШИЛАДИГАН ЮКЛАР ВА УЛАРНИНГ ТЎКИЛИШ ЖАРАЁНИ ТУРЛАРИ

Байназаров Хайрулло Рахимович

Андижон машинасозлик институти докторанти

Телефон:+998(90) 0602044

avtodoroj2012@gmail.com

Бобоев Нодирбек Қурвоналиевич

Андижон машинасозлик институти катта ўқитувчиси

Телефон:+998(93) 2424280

Boboyev79@gmail.com

Ўзбекистон иқтисодиётида қишлоқ хўжалиги салмоқли қисмни ташкил этади. Статистик маълумотларга қараганда, мамлакатимизда хар йили 21 миллион тоннадан ортиқ мава-сабзавотлар, 3 миллион тоннадан ортиқ пахта хом-ашёси ва қарийб 8 миилион тонна ғалла етиштирилади. Қолаверса, мамлакатимизни табиий-географик жойлашуви хам соҳадан янада самарали фойдаланиш имкониятини беради. Шунинг учун, давлатимиз соҳани ривожлантиришга - қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари хажмини, сифатини ва экспортини оширишга катта эътибор бермоқда.

Юртимизда ишлаб чиқарилаётган тиркамалардан халқ хўжалигининг барча тармоқларида фойдаланилади. Айниска, улар қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари (пахта, буғдой, шоли, макка, турли сабзовотлар ва бошқалар) ни ташишда муҳим ахамият касб этади. Тиркамалардан фойдаланилганда вақтни тежаш хисобига иш унуми ошади, маҳсулот таннархини камайтиришга эришилади хамда юкларни далалардан тайёрлов пунктларига қадар қопқанорсиз уюм холида ташиш имконияти яратилади.

Тиркамалардан шунингдек қурилиш материалларини ташиш, коммунал хўжалик ишларида хам кенг фойдаланилади.

Тиркамаларда ташиладиган юкларнинг турлари ва уларнинг техник тавсифлари 1-жадвалда кўрсатилган.

Кўтариб-ағдариш қурилмасининг иш жараёни юкларни ағдариб тўкишдан иборат.

Юкларнинг тўкилиш жараёни уларнинг турига (сочилиувчан, ёпишиувчан) ва намлик холатига (куруқ, хўл) қараб қўйидаги турларга бўлинади:

1. Юклар ўзаро сирпаниб тўкилади (сочилиувчан қуруқ донлар, қум ва шунга ўхшаш осон тўкилиувчан юклар);

Бу турдаги юклар асосан бир-бирларининг юзасида ўзаро сирпаниб, қисман думалаб ва суюқликнинг оқиши жараёнига ўхшаб тўкилади. Тўкилиш жараёни кузов бортини очилиши биланоқ бошланиб, кузовнинг ағдариш бурчаги ишқаланиш бурчагига етмасдан тугайди.

2. Юклар платформанинг таянч юзалари бўйлаб сирпаниб тўкилади (пахта, хар-хил экинларнинг поялари, тош, ғишт ва бошқа қийин тўкилиувчан юклар);

Бу турдаги юклар асосан кузовнинг таг юзаси бўйлаб, қисман ўзаро сирпаниб, айрим холларда яхлит бир бўлиб сирпаниб тўкилади. Юклар бирданига ёки порция бўлиб тўкилганда динамик кучлар хосил бўлади.

3. Юклар аралаш сирпаниб тўкилади (шағал, хўл қум, тош, қўмир, тупроқ қаъби енгил тўкилиувчан юклар).

Бу турда аввал юкнинг устки қисми ўзаро сирпаниб бўлиниб-бўлиниб, кейин эса юкнинг остки қисми кузов бўйича сирпаниб яхлит холда тўкилади ва бундай тўкилишда унча катта бўлмаган динамик кучлар хосил бўлади.



1-жадвал

Тиркамаларда ташиладиган ва ағдариб тўкиладиган юкларнинг турлари ва хусусиятлари

№	Номлари	Зичлиги, т/ м ³	Пўлат юза бўйича ишқаланиш бурчаги, (ϕ)°	Табиий қиялик бурчаги, (ϕ_0)°	Тўла тўкилиш бурчаги, (α_0)°
1	Металлом	1,7-2,5	8-13	35-40	13
2	Шағал	1,5-2,0	30-35	30-35	35
3	Кум (куруқ)	1,2-1,5	35-38	31-36	36
4	Кум (хўл)	1,9-2,0	38-40	35-40	40
5	Тупрок (курук)	1,0-1,5	35-37	45-50	37
6	Тош	1,2-1,6	35-40	30-35	35
7	Кўмир	0,65-0,8	30-35	30-40	35
8	Маишӣ чикиндилар	0,4-0,6	35-40	40-50	40
9	Гўнг	0,7-0,9	38-40	45-50	40
10	Буғдой	0,7-0,8	25-27	30-35	27
11	Шоли	0,5-0,6	30-35	36-42	35
12	Пахта	0,59-0,64	40-45	43-45	45
13	Силос	0,25-0,3	31-36	50-55	36
14	Ёғоч қиринди	0,25-0,32	35-36	35-39	36
15	Шебен	1,5-1,8	30-34	35-45	34

Хулоса. Тиркамалар кўтариб-ағдариш қурилмаси конструкциясини хисоблашда юқорида келтирилган маълумотлар жадвалидан фойдаланиш тавсия этилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

- Х.Р. Байназаров, Қ. Халмерзаев Тиркамалар кўтариб-ағдариш қурилмасининг иш жараёнига оид тадқиқот ишларининг таҳлили Илм-фан, таълим ва ишлаб чиқаришнинг инновацион ривожланишдаги замонавий муаммолар. Халқаро илмий амалий конференция Андижон 2020
- Ф.У. Юлдашев Разработка методики расчета подъемного механизма транспортных средсв. Диссертация на соискание КТН, Ташкент: 2015.
- Ф. М. Матмуродов Обоснование динамических параметров работы подъемно-опрокидывающего устройства кузова самосвальной машины. Диссертация на соискание КТН, Ташкент: 2002.



КҮП ҚАВАТЛИ БИНОЛАР ҚУРИЛИШИДА ЭНЕРГИЯСАМАРАЛИ ДЕВОР ПАНЕЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ

Юсупов У. Т.

Тошкент архитектура қурилиш институти т.ф.н., доцент
Телефон: +998(93) 395-33-95, pgs9111@mail.ru

Бахриддинова З. Ж.

Тошкент архитектура қурилиш институти магистранти

Аннотация. Ушбу мақолада кўп қаватли девор панелларидан тўғри фойдаланиш, унинг таркидаги элементлар, юк кўтаришга чидамлилиги ҳамда панелларнинг ташқи қўриниши ва энергиясамараали қуриш усуслари ҳақида гап боради. Шунингдек, темир-бетон панелларининг ўзига хос хусусиятлари келтирилган.

Калит сўзлар: темир-бетон панеллар, композицион қурилиш, конструкциялар хусусияти, чидамлилик технологияси, динамик кучланиш, пайвандловчи сетка.

Аннотация. В данной статье рассматривается правильное использование многослойной стеновой панели, элементы ее конструкции, несущая способность, а также способы декорирования внешнего вида и экsterьера панелей. Также приведены особенности железобетонных панелей.

Ключевые слова: железобетонные панели, композитная конструкция, конструктивные свойства, технология прочности, динамическое растяжение, сварочная сетка.

Замонавий қурилишни энергиясамараали девор панелларсиз тасавур қилиш мумкин эмас. Бутун дунёда, шу жумладан Ўзбекистонда энергиясамарадор панел уйлар қурилмоқда. Ушбу технология ёрдамида янги уй-жойларнинг барча блокларини қисқа вақт ичida нисбатан арzon қуриш имконияти юзага келди. Бугунги кунда иссиқлик тежаш, бинолар ичдаги қулай шароитлар, биноларнинг меъморий ифодаси ва шу каби талабларга жавоб бериш мақсадида замонавий технологиялар ва янги материаллар жорий этилмоқда[1].

Замонавий девор панеллари бу - самараали иссиқлик изоляциялаш материалларидан фойдаланган ҳолда кўп қатламли тузилмалардир. Уларни ишлаб чиқариш учун анъанавий темир-бетон ва бошқа материаллар ишлатилади, улар орасида энг кенг тарқалгани металл плиталар («Сендвич» каби панеллар) хисобланади.

Темир - бетон-композицион қурилиш материали бўлиб, унда бетон ва пўлат арматура бир бутунга айлантирилади. Бетоннинг асосий камчилиги бу унинг паст даражадаги чўзилиш мустахкамлигидир. Шунинг учун арматурани (пўлат мажмуаси) бетонда мустахкам жойлаштирилади, шунда кучланиш мустахкамловчи томонидан қабул қилинади ва сиқиши кучлари бетонга ўтказилади. Бетон ва арматуранинг биргаликдаги иши мустахкамланишни, улар орасида яхши ушланишни ва чизиқли кенгайиш кофицентларининг яқинлиги билан таъминланади.

Заводда ишлаб чиқарилган уч қатламли темир-бетон панеллари конструкцияларининг хусусиятлари қуйидагилардир:

- қурилиш тезлиги, иқтисодий нуқтаи назаридан ўрнатиш ҳаражатлари;
- қурилиш ишларининг об-ҳаво шароитларига минимал даражада боғлиқлиги;
- қаттиқ иссиқлик изоляцияси, кучланиш ва кесиш кучини сезадиган, бетон қатламлар орасидаги юкни қайта тақсимлайди, натижада панелнинг юк кўтариш ҳажми сезиларли даражада ошади.

Ишлаб чиқариш технологияси билан боғлиқ замонавий темир-бетон панелларнинг яна бир хусусиятини эътиборга олиш лозим. Замонавий опалубкалар (мобил ўзгарувчан) ҳар бир лойиха учун керакли ўлчамлар ва конфигурациядаги панелларни ишлаб чиқариш имконини беради.

Тўлиқ йиғилган темир-бетон панеллар юк кўтарувчи, ўз-ўзини кўтарувчи ва осма (мажбурий бўлмаган) бўлиши мумкин. Туарар-жой биноларида кўпинча ички қатламига плиталар таянувчи ушлаб турувчи девор панеллари ишлатилади. Маъмурий биноларда одатда осма панеллар ва юк кўтарувчи каркаслар ишлатилади.

Конструкцияни танлашда ташқи қўриниши, функционаллик, куч-куват ва талаблари, монтаждан кейинги парвариш, монтаж қилиш қулайлиги ва энергиясамарадорлиги,



иктисодий кўрсаткичлар каби деталларига эътибор бериш керак.

Кўп қатламли ташқи панеллардан фойдаланиш давомида статистик доимий ва қисқа муддатли юклар таъсир этади. Улар, шунингдек, ҳароратнинг тушиб кетиши ва намлик таъсирига дуч келади. Панелларни ташиш ва кўтариш вақтида динамик кучланиш пайдо бўлиши мумкин.

Юкларнинг энг кенг тарқалган турлари ва кучланиш манбалари қуйидагилардан иборат:

- шамол босими ва тортиши;
- ўз вазни ва бошқа доимий юклар;
- доимий юкларнинг экскентриситети;
- инсон, ҳайвон ёки транспортдан келиб чиқсан горизонтал кучлар;
- бетон қатламларга ўрнатиладиган ускунанинг вазни;
- темир-бетон қатламларининг ўртача ҳароратининг ўзгариши;
- қатламларнинг ички ҳарорати фарқи;
- қатламлар орасидаги ҳарорат фарқи;
- қатламларни қисқартириш ва сиқиш;
- пойдевор чўкмаси;

Ушбу параметрларнинг барчаси кўп қаватли энергиясамарали панел деворларни лойиҳалашда ҳисобга олиниши керак[2].

Уч қаватли панелларнинг ташқи ва ички қатламларини улаш алоқалар орқали амалга оширилади. Кўп қатламли панелнинг бетон қатламларини боғлайдиган уланишларнинг асосий функциялари қуйидагилардан иборат: қатламлар орасидаги ўзаро таъсирини таъминлаш; ташқи қатламнинг ички қатламга юкланишини ўтказиш; қатламларнинг эгилишини олдини олиш.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикасининг “Энергиядан оқилона фойдаланиш тўғрисида”ги қонуни.
2. Юсупов У.Т., Тешабоева Н.Д. “Operating electronic elements in dry warm climate” Меъморчилик ва қурилиш муаммолари// Илмий техник журнал СамДАҚИ №3сон 119-120 б.



ONA TILI O'QITISHNING AHAMIYATI

Norxonova Guli Alisher qizi

Xorazm viloyati shovot tumani 49-son
ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lif maktab
texnologiya fani o'qituvchisi.

Email:guli49maktab@umail.uz

Normatova Shirin Qodirovna

Xorazm viloyati shovot tumani 49-son
ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lif
maktab texnologiya fani o'qituvchisi.

Email:shirin49maktab@umail.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada Texnologiya ta'lifi mashg'ulotlarida fanlararo bilim berishning holati va pedagogik asoslari, bolalarining shakllanishida texnologiya fanining ahamiyati haqida mulohazalar yuritiladi.

Texnologiya ta'lifi mashg'ulotlarida fanlararo bilim berishning holati va pedagogik asoslari Jamiyatdagi integratsiya jarayonida insonning shaxs sifatida shakllanishi, uzoq umr korishining sabablari inson psixikasining rivojlanishiga bog'liq. Bu borada buyuk ajododlarimiz Abu Rayxon Beruniy «Otmishdan qolgan yodgorliklar» asarida odamning uzoq umr ko'rishini biologik va irlar omillar bilan boglaydi. Ibn Sino «Tib qonunlari» asarida organizmning tuzilishi, nerv shaxobchalar, psixologik jarayonlar; «Odob xaqida» risolasida esa shaxsni shakllantirish togrisida to'xtaladi. YUsuf Hos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida komil insonni tarbiyalash bosh masala qilib olingan. Fransuz psixolog P.Jane (1857 — 1947) psixik rivojlanishning biologik va ijtimoiy munosabatlarini aniqlagan. Uning nazariyasiga asosan inson psixikasi, ijtimoiy munosabatlarga bog'liq. Jamiyat va tabiat ortasidagi turli aloqalar insonning osishini belgilaydi-deb tushuntirsa, AQSHlik psixolog Dj Bruno (1915), "SHaxsnинг таркиб топиши билан та'lim ортасида иккиси оғизлана алған мавжуд. Insonning kamolot sari intilishi bilim olish samaradorligini oshirsa, oqitishning takomillashuvi uning ijtimoiylashuvini tezlashtiradi" deb uqtiradi. K.D.Ushinskiy bolani faqat o'zi qiziqtirgan narsa bilan emas, tevarak atrofga ongli qarashga o'rgatishni, ta'lim jarayonida o'quv materiallarining ma'nosini, mohiyatini, ilmiy asoslarni eslab qolishi va esga tushirish orqali mantiqiy xotira takomillashishini asoslab bergen. A.Smirnov, esda saqlab qolishning to'g'ri usuli matndagi ma'noli so'zlarni topish, tayanch nuqtani aniqlash, so'zlash uchun reja tuzish, o'tgan mavzularni idrok etgan holda yangi mavzuni takrorlash. Aqliy mehnatda mustaqillikni vujudga keltirmay bilishga intilish, qobiliyatini o'stirish mumkin emas deb xisoblaydi va o'qituvchilarning vazifalaridan biri, o'quvchilarda materialni eslab qolish uchun muayyan intilishni, eslab qolish usullarini, fikr yuritish operatsiyalarni (taqqoslash, tahlil qilish)ni o'rgatishi zarur. Materialni eslab qolish usullarini o'rganish mantiqiy xotira o'sishining garovidir-deb uqtiradi. I.A.Mironenko XXI asrda zamona viy insonda bioijtimoiy xarakter ruhiyatini shakllantirish, buning uchun quyi strukturali formatsiyada birlikdagi integratsiya va tizimli tadqiqot ishlarini olib borish imkoniyatini yaratish g'oyasini ilgari suradi. Bu maktablar oldida turgan asosiy muammolardan biri deb hisoblaydi. Maktab bugun dunyoviy fan, til, buyuk insonlar ruhiyatidan uzilgan, izolyatsiyalangan holda bo'lishi mumkin emasligini ko'rsatadi. SHuningdek, L.S.Vigotskiy va S.L.Rubenshteynlar "Psixologik ensiklopediya"larida shaxsni ruhiyatini rivojlanishida, dunyo fanlarining roli va ularni to'liq integratsiyasiga sharoit yaratishni ilgari suradilar. B.G.Ananeva inson tabiatini va uning rivojlanish qonuniyatini individuallik konsepsiyasini yaratdi. Inson rivojlanishini integrallovchi ijtimoiy va biologik dastur, hayot yo'lli va psixofiziologik rivojlanishi variantini taklif etadi. Psixologiya fanlari doktori N.Pidayakovning tadqiqotlariida integratsiya jarayonining psixologik asoslari, fikrlashining kategorial tuzilishi ifodalangan. Uning ko'rsatishi-cha, fikrlashning kategorial tuzilishini boshlang'ich shakli maktabgacha yoshdag'i bolalarda yuzaga keladi, bunda bolaning umumiy ruhiy rivojlanishida o'yin asosiy rol o'yaydi. AQSHlik psixolog olimlar S.Bleyk, S.Peyp va M.A.CHoshanovlar ta'lim jarayoni asosidagi neyropsixologik tadqiqotlar olib borganlar. Inson miyasi yarim sharlarining funksiyasini o'rganib (chap qismi-so'z, son, mantiq, analiz; o'ng qismi - obraz, figura, intuitsiya, sintez va boshqalar), buni pedagoglar matematika fanini qo'llab, o'quvchining bosh miya yarim sharlarining qay daraja-



da rivojlanganligini tekshirganlar. Ular neyropedagogika prinsiplariga-o'qish va bilish miyaning tabiiy rivojlanish mexanizmi, inson miyasining analiz va sintezlash funksiyalari; fazoviy ko'rish, xotira va tizimli "yodlash" kabilarni keltirish bilan birga, o'qitish jarayonida guruhlarga bo'lismi, predmetlararo aloqa; mavzuga mos turli integrativ axborotlarni, ko'rgazmali didaktik materiallarni qo'llashning psixologik roli muhimligini ko'rsatganlar. Ta'limda integratsiya jarayonining pedagogik asoslarini, shuningdek, mavzulardagi integrativ yondoshuvni ko'p olimlar o'z tadqiqotlarida asoslashgan.K.Mit'ko, O.N.SHeglovalar mavzudagi integratsiyaga to'xtalib, integrativ yondoshuv shunday yondoshuvki, bunda sermazmun o'qitish, uyushgan va metodik birlikkagi jarayonda beriladi.U faqat darsdagina emas, balki bo'limning ma'lum bir mavzusida, o'quv yo'nalshilarida xam beriladi. Har bir kursda, ixtiyoriy mavzuning etaklovchi g'oyasi bo'lishi lozim. Bu g'oya, tushuncha, qonuniyatlarni, nazariyalarni o'rganish jarayonida ularni o'zaro bog'lab borishni taklif etadi. A.N.Zaxlebniy va M.V.Rijkovlar pedagogikada istalgan variantdagi integrallashgan kursni faqat ikkita zarur yo'nalish asosida ko'p yo'nalishli va oddiy yo'nalish asosida qurish zarurligini taklif etadilar. Ular bilimlarni integrallashni maktabbdagi alohida predmetlar mazmunida, o'quv dasturi, darsliklarni bog'lanishini hisobga olgan holda ishlash lozimligini uqtiradilar. Biz integratsiyaning moxiyatini aniqlash jarayonida uning falsafiy, pedagogik psixologik va metodik asoslarini aniqlab oldik. Ma'lumki, o'qitish va tarbiya jarayoni bir-biri bilan uzviy bog'liq, lekin inson shaxsining shakllanishida tarbiya ustuvor ahamiyat kasb etadi. CHunki, tarbiya ta'lim jarayonining barcha majmuuni o'z ichiga oladi. Zamonaliv intellektual insonni tarbiyalashda integrativ ta'limning barcha jihatlari (aqliy, ahloqiy, iqtisodiy, mehnat, estetik, gigienik, huquqiy, jismoniy tarbiya)ni qamrab oladi va ularning o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi. Integrativ ta'lim jarayonida o'quvchi, olamning yaxlitligini, koinot, tabiat qonunlarini, tabiat, jamiyat va insonlarning o'zaro munosabatlari xaqida xar tomonlama bilimlarga ega bo'lib kamol topadi. Tabiat go'zalligini his qila olib, undan zavqlanish, e'zozlash ko'nikmalariga ega bo'ladi. YUqorida ko'rsatilgan integrativ ta'limni amalga oshirishda, umumiyy pedagogik jarayonning barcha tarkibiy qismlari, jamoatchilik, ota-onalar, otaliq tashkilotlari faol ishtirok etishi zarur, degan xulosa kelib chiqadi. Integratsiyaga oid darsliklar, o'quv qo'llanmalar va metodik adabiyotlarda tabiatdagi qonuniyatlarning o'rganilishi ochib beriladi, shuningdek, uning insonni shakllanishiga ko'plab ijobjiy ta'siri yoritiladi, biroq ularda o'quvchi olgan bilimlarga tayanib, unda Koinotda Erning taqdiri to'g'risida o'yashga, fanlardan erishilgan bilimlarni umumlashtirgan xolda tafakkur qilishga o'rgatish, ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishga etarli e'tibor berilmagan. Ta'limda integratsiya qanday funksiyalarni bajarishi quyidaga jadvalda keltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoyev Sh.M. —Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini mard va oily janob xalqimiz bilan birga quramiz mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi.-T: O'zbekiston 2016 y, 56 b

2.Tolipov.O'.Q, Razzoqov D. Bobojonova Q. Umumiyy o_rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limidan Davlat ta'lim standartini amaliyatga joriy etish. Metodik qo'llanma. O'zPFITI laboratoriysi. T.: 2000.



RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINING MAZMUNI VA UNI O'QITISHDA ILG'OR TAJRIBALAR

Qudratova Gulhay Otaqulovna. Navoiy viloyati Navoiy shahar xalq ta'limga qarshli 20-umumi o'rta ta'limg maktabi Informatika fani o'qituvchisi

Tayanch iboralar: kommunikasiya, texnologiya, SMART, vebinar, Evristik tyutor, edvayzer, fasilitator, moderator, integrasiya, an'anaviy ta'limg, zamonaviy ta'limg, interfaol ta'limg omillari.

Dars bu - sinfda taqvim-mavzu reja asosida belgilangan vaqt davomida o'qituvchi tomonidan o'quvchilar uchun o'quv-tarbiya jarayonining maqsadli tashkil etilishidir.

Modulli o'qitish - o'qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u ta'limg oluvchilarning bilim imkoniyatlarini va ijodiy kobiliyatlarini rivojlantrish tizimiga eng yaxshi moslashgandir. An'anaviy ta'limga o'quv maksadlari pedagog faoliyati orqali ifodalangan ya'ni bilim berishga yo'naltirilgan bo'lsa, modulli o'qitishda ta'limg oluvchilar faoliyati orqali ifodalaniib, kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan bo'ladi.

Zamonaviy ta'limga ilg'or xorijiy tajribalar **blended learning** (aralash o'qitish). Axborot texnologiyalari ta'limga turli yangi ko'rinishlarini taklif etmoqda, xususan keyingi vaqtarda modulli ta'limg tizimida majmuaviy èndashuv tamoyili kuchayib bormoqda. Unda turli shakl, usullar moslashtirilgan holda joylashtirilishi aralash ta'limg innovasiya sifatida kirib kelishiga sabab bo'ldi.

Deklan Bern "**blended learning**" (aralash ta'limg) haqida shunday deydi ushbu ta'limg boy pedagogik tajribadan samarali foydalanishga qaratilgan. Bunday yondashuv axborotni taqdim etishda turli uslubiyotlardan foydalanishni, ta'limg tashkil etishda va ta'limg jarayonida axborot texnologiyalari, yakka tarzda va guruhlarda an'anaviy faoliyatni tashkil etishga asoslanishi mumkin. Bunday turlicha yondashuv o'quvchini charchatmaydi va o'qishga bo'lgan motivlarini kuchaytiradi. Asosiy masala - tanlangan uslubiyotlarning o'zaro mutanosibligini ta'minlash va kam harajat asosida yuqori samaradorlikka erishish hisoblanadi.

Bugungi kunda **blended learning** kunduzgi an'anaviy ta'limg va masofaviy ta'limg unsurlari kombinasiyasi hisoblanib, bunda an'anaviy metodika va yangi texnologiyalarni uyg'unlashtirishga imkon yaratiladi. Bu tizimda o'qituvchi ta'limg markazida qoladi va internet imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanadi. **Blended learning** masofaviy ta'limg (**Distance learning**), sinf xonada ta'limg (**Fake-to-Fake learning**) va internet orqali ta'limg (**Onlin learning**)dan iborat.

Vebinar metodi: Bugun masofaviy ta'limga yana bir turi "**webinar**" (1998 yilda bu termin muloqatga kiritildi) texnologiya vujudga keldi. Vebinar texnologiya o'qitishni web – texnologiya asosida interaktiv holda tashkil etishni nazarda tutadi. Bu texnologiya nafaqat tinglovchilarga axborotni yetkazadi, balki ular bilan muloqotga kirishish (og'zaki, yozma) imkonini yaratadi, ya'ni seminar ko'rinishida fikrlarni almashish, o'z fikrini bayon etish mumkin. Boshqacha qilib aytganda internet tarmog'i asosida tashkil etiluvchi ta'limg ham sub'ekt-sub'ekt paradigmasiga o'tmoqda.

Vebinar usulida dars seminar yoki konferensiya Internet orqali bir vaqtida hozir bo'lgan tinglovchilar bilan **audio video** (va avvalgi postlarda sanab o'tilgan ko'plab interaktiv imkoniyatlar) bilan jonli olib borilib ushbu dars keyingi foydalanishlar uchun yozib olinishi mumkin bo'lsa-da, butun o'quv yoki kurs jarayonidagi darslar yagona platforma doirasida o'zaro uzviy bog'lanmaydi, ya'ni alohida-alohida bir martalik darslar bo'ladi deyish mumkin.

Evristik o'qitish metodi: Evristik o'qitish metodini qo'llashda o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlikda hal etilishi zarur bo'lgan masalani aniqlab oladi. O'quvchilar esa mustaqil ravishda taklif etilgan masalani tadqiq etish jarayonida zaruriy bilimlarni o'zlashtirib oladilar va uning echimi bo'yicha boshqa vaziyatlar bilan taqqoslaysidi. O'rnatilgan masalani yechish davomida o'quvchilar ilmiy bilish metodlarini o'zlashtirib tadqiqotchilik faoliyatini olib borish ko'nikmasi tajribasini egallaydilar.

Evristik metod o'qituvchilardan ijodiy xususiyat kasb etuvchi yuqori darajadagi bilish faoliyatini tashkil eta olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishni taqozo etadi. Buning natijasida



o‘quvchilar mustaqil ravishda yangi bilimlarni o‘zlashtira oladilar. Ular odatda yuqori sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirish darajalarini hisobga olgan holda ma’lum holatlarda qo‘llaniladi. Ushbu metodlardan boshlang‘ich sinflarda foydalanish amaliyotchi-o‘qituvchilarning fikrlariga ko‘ra birmuncha murakkab hisoblanadi. Biroq uzlusiz ta’lim tizimiga shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni faol joriy etishga yo‘naltirilgan ijtimoiy harakat amalga oshirilayotgan mavjud sharoitda ushbu yo‘nalishdagi loyihalarni tayेrlash o‘ziga xos dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Shunga qaramasdan bu tasnif maktab amaliyotida birmuncha keng tarqalgan va pedagogik hamjamiyat tomonidan e’tirof etilgan. Shuningdek, buyuk didakt I.Ya.Lerner asarlari asosida ilmiy tadqiqot ham amalga oshirilgan.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abduqodirov A.A., Ishmuxamedov R., Pardaev A. Ta’limda innovation texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste’dod, 2008.-180 bet.
2. Abduqodirov A.A., Karimov Q.M., Yuldashev I.A. Aniq fanlarni o‘qitishda keys texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti. -T.: Fan va texnologiya, 2015. -184 bet.
3. Yuldashev U.Yu, Boqiev R.R., Zokirova F.M. Informatika o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. “Talqin” 2004. 187-b.
4. Abduqodirov A.A., Astanova F.A., Abduqodirova F.A. Case-study uslubi: nazariya, amaliyot va tajriba. -T.: Tafakkur qanoti, 2012. -134 bet.
5. Ishmuxamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardaev A. Tarbiyada innovation texnologiyalar (ta’lim muassasalari o‘qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste’dod, 2010.-140 bet.
6. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovation pedagogik texnologiyalar.-T.: Nihol nashryoti, 2013 yil 278 bet.
7. Xodjaev B.X. Innovation ta’lim texnologiyalari modulidan ma’ruza matnlari.-T.:2015



TASVIRIY SAN'AT TA'LIMINING O'QUVCHILARNING YOSHIGA VA BILIM-MALAKALARIGA MOS BO'LISHI.

Rahmatullayeva Charos Quronboyevna

Shovot tuman 49-son ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lif maktab tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi.

Email: charos49maktab@umail.uz

Ro'zimova Gulnora Rajabovna

Shovot tuman 46-son umumiy o'rta ta'lif maktab tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi.

Email: gulnora46@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lif maktablarida tasviriy san'at fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar usullarni qo'llash natijasida, o'quvchilarning tasviriy san'at faniga bo'lgan qiziqishlarini rivojlanishi, malakasi shakllanishi, bilimga ishtiyoq uyg'otishi, darslarga puxta hozirlik ko'rishga intilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lif, zamonaviy, kompozitsiya

Ta'lif-tarbiya tarixida maktablarning tashkil topishi bilan sinf dars tizimiga ham asos solingan. Sinflarda bir xil yoshdagi «o'quvchilar» deb atalmish bolalar (o'g'il-qizlar) dan tashkil topgan guruuhlar o'qitila boshlangan. Bu sinflardagi o'quvchilaming yoshiga va tushunchasiga ko'ra, ma'lum darajada moslashtirilgan dastur va darsliklar tuzilib, ular asosida o'qitib kelingan. Bu tizim bugungi maktablarda ham qo'llanilib kelinmoqda. Lekin bu o'rinda shuni aytish joizki, jamiyatlar taraqqiyoti, xalqlarning turmush va madaniy darajasi o'sib borishi va ishlab chiqarishning tobora rivojlanishi, takomillashuvi va jamiyatdagi o'zgarishlar maktablar faoliyatini, ulardagi pedagogik texnologiyalarni va albatta, o'qitish didaktikasi va metodikasini o'zgartirib boradi. Shuningdek, maktab o'qituvchilari ham davr talabiga ko'ra, dastur materiallari asosida o'z maktabi sharoitidan kelib chiqqan holda ish rejalarini o'zgartirib boradilar. O'qituvchi o'quvchilarning yoshi bir xil bo'lishiga qaramay, tasviriy san'at bo'yicha bilim va malakalarining qay darajadaligini o'rganib chiqishi va shuni nazarda tutgan holda rasm chizish uchun natura obyekt va tematik kompozitsiyalami belgilaydi. O'rni kelganda shuni aytish joizki, hozirgi kunda ayrim maktablarda, turli sabablarga ko'ra, 1-3-sinflarning tasviriy san'at o'quv predmetining rasm chizish bo'yicha mutlaq malakasiz, professional bo'Imagan boshlang'ich sinf o'qituvchilariga berib qo'yilgani bois o'quvchilarga tasviriy san'atdan hech qanday bilim-malaka berilmayapti. Bu holat to'rtinchini sinfdan darsga kiradigan tasviriy san'at o'qituvchilariga ancha noqulayliklar va salbiy holatlarni keltirib chiqarmoqda. Chunki Davlat dasturiga ko'ra, 4-sinfdan o'quvchilar hajmlı predmetlar rasmini chizishga kirishadilar. Lekin o'quvchilar 1-3-sinflarda mutaxassis bo'Imagan o'qituvchi qo'lida 3 yil o'qib, tasviriy san'at bo'yicha hech qanday bilim-malaka ega bo'Imagan holda 4-sinf dasturi materiallarni o'zlashtira olishmaydi. Shuning uchun, eng awal, boshlang'ich sinf tasviriy san'at darslarini mutaxassis pedagog-rassomlar o'qitishini yo'lga qo'yish lozim. Dasturda 4-sinfdan hajm va hajmli predmetlar rasmini chizish boshlanadi. Shuning uchun o'qituvchi bu sinf darslariga ancha puxta tayyorgarlik ko'rib ishga kirishadi. Bu o'rinda o'qituvchi 4-sinf o'quvchilarining bilim va malakalarini o'rganib chiqib, shu asosda dastur materiallarni rejalashtiradi. Imkoniyati bo'lsa, qo'shimcha darslar ham tashkil etadi. Hatto o'qituvchi bu sinfda tabaqa lashtirib o'qitish tizimidan ham foydalanishiga to'g'ri keladi. Maqsad 4-sinf o'quvchilarini hajmlı predmetlar rasmini chiza olish darajasiga yetkazib olish. Shuningdek, o'qituvchi har bir darsni tasviriy san'at kabinetida o'tkazishi, darsga kirishish davrida maxsus didaktik tayyorgarlikni tashkil etishi, yana qo'shimcha didaktik materiallar bilan ishlashiga to'g'ri keladi. Bu sinflarda o'quvchilaming bilim va malakalarini nazarda tutgan holda o'qitishning tabaqa lashtirilgan tizimidan ham unumli foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. 7-sinflarda ham o'quvchilarning grafik bilim va malakalarini nazarda tutgan holda dastur materiallari rejalashtiriladi. Rejaga kiritilgan mavzular bo'yicha tanlanadigan, ya'ni rasmi chiziladigan natura va obyektlar va tahlil qilinadigan san'at asarlari o'quvchilarning yoshiga, bilim saviyasiga va malakalariga ko'ra olinadi. Dasturda shunday mavzular borki yoki rasmini chizish uchun natura, obyekt va tematik kompozitsiyalar berilganki, ularni O'qituvchi topa olmaydi. Shunga ko'ra,



dasturda berilgan mavzulami maqsadi va vazifasi asosida o‘qituvchining o‘zi rasm chizish uchun natura, obyekt va kompozitsiya mavzusini topadi va tanlaydi. Shu boisdan o‘qituvchi ijodkorlik bilan faoliyat ko‘rsatadi. Ya’ni dars o‘tiladigan sinf o‘quvchilarining bilimi va malakasining qay daraja- daligini o‘rganib va shunga ko‘ra o‘qituvchi o‘quvchilarga yaqin, ularni qiziqtiradigan, tasvirlash malakasi, davrga mos natura, obyekt va tematik kompozitsiyalar tanlaydi. Hatto o‘qituvchi mактабда birinchi yil ishlayotgan bo‘lsa, yana tabaqalashtirish sistemasida ishlashi ham yaxshi samara beradi. Hozirgi davrda yangi pedagogik texnologiya bo‘yicha ishlayotgan o‘qituvchilar ko‘payib bormoqda. Tasviriy san’at o‘qituvchilari ham bu soha bo‘yicha ilg‘or pedagoglar ish tajribasini o‘rganishi va undan ijodiy foydalanishi tasviriy san’atni o‘qitishda yaxshigina samara beradi. Umuman, tasviriy san’at darsi va unda o‘rganiladigan mavzular materiali o‘quvchilarning yoshiga, bilimi saviyasiga, ko‘nikma va malakalariga qanchalik mos, yaqin bo‘lsa, o‘quvchilar darsda zerik- maydi, ularning darsdagi diqqat-e’tibori barqarorligi ta’minlanadi. Bu holatda o‘quvchilar mustaqil, tashabbuskorlik asosida, ijodkorlik bilan rasm chizishga, kompozitsiyalar tuzishga kirishib ketadilar. Shu boisdan o‘qitishning bu tizimiga va didaktik prinsipi buyuk chex pedagogi Y.A. Komenskiy alohida to‘xtalib, «Bolalarga O‘rgatiladigan narsalar, faqat yoshi, qobiliyati, bilimiga mos keladigan, shuningdek, o‘zлari qiziqadigan narsalarnigina o‘rgani-shardi», deb yozadi. Lekin bularning barchasi faqat yuqori malakali mutaxassis bo‘lgan tasviriy san’at o‘qituvchisining fidokorligi, ijodiy ishlashi va maktabda bu fanni o‘qitish didaktikasiga amal qilish va yuqori darajada metodik tayyorgarligi evaziga bunyod etiladi va erishiladi. Xulosa qilib shuni aytish joizki, maktabda tasviriy san’atni o‘qitish o‘ziga xos pedagogik texnologiyaga ega bo‘lib, bu texnologiya o‘qitishning qator didaktik prinsiplariga amal qiladi. Chunki o‘qitish didaktikasi:birinchidan, maktabda tasviriy san’atni o‘qitishning ilmiy asosini yaratib, berilayotgan tasviriy san’at ta’limining tarbiyaviy holatini belgilab beradi; ikkinchidan, tasviriy san’at ta’limining ongli, tizimli, izchil, ijodkorlikda bo‘lishini ta’minlaydi; uchinchidan, tasviriy san’at darslarida didaktik va ko‘rgazma materiallaridan foydalanishning ilmiy asosini, ya’ni qonun- qoidalarini asoslاب beradi; to ‘ rtinchidan, o‘quvchilarga berilayotgan bilim va malakalaming birligini, nazariyot bilan amaliyotning bog‘liqligini ko‘rsatib, berilayotgan bilim-malakalar o‘quvchilaming yoshiga, bilimiga va malakalariga mos bo‘lishining didaktik asoslarini ko‘rsatib beradi;beshinchidan, o‘quvchilar rasm chizish va san’at ta’limini ongli, faol, mustaqil holda egallab, ijodiy ishslash ko‘nikmalariga ega bo‘lishning ilmiy asoslarini ko‘rsatib, ularga amal qilishning didaktik shart-sharoitini yaratib beradi va bunga amal qilishni talab qiladi:oltinchidan, tasviriy san’atdan beriladigan ta’limning oson, qisqa va asosli, ya’ni barcha sababli bog‘lanadigan tomonlari bilan birga berilishini ilmiy jihatdan ta’minlaydi. Shu boisdan tasviriy san’at o‘qituvchisi o‘qitish didaktikasi va metodikasi bo‘yicha puxta tayyorgarlikdan o‘tishi lozim. Shuningdek, u doimo ijod qilib, izlanishda boMishi, har bir dars mashg‘ulotini tasviriy san’at kabinetida o‘tkazishga erishmog‘i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. R. Hasanov.Tasviriy san’at mashg‘ulotlarini takomillashtirish T.1986
2. N. Rostovsev.O‘rta maktabda tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi tarixi. 2 jildli.1-jild. M:1980.
3. B.Oripov.Tasviriy san’atni o‘qitishning zamонавиј pedagogik texnologiyasi. N: 2010.



ELEKTR O'TKAZUVCHI POLY (3- DECYL THIOPHENE) POLIMERINING LYUMINESTSENTSIYA XOSSALARI

Urolov Shamsiddin Zayniddinovich
Nurolliyev Novruz Shomardon o'g'li

1. O'RFA Ion- plazma va lazer texnologiyalari instituti;
2. Toshkent Kimyo – texnologiyalar instituti Shahrisabz filiali.

Annotatsiya. Elektr o'tkazuvchi P3DT polimerining toluoldagi eritmalarining lyuminesentsiya spektrlari murakkab bo'lib, 3 ta Gauss tashkil etuvchilarga ajratilishi mumkin. Bu polosalar P3DT ning monomer, dimer va trimer molekulalariga tegishli bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: Poly (3- alkyl thiophene), Poly (3- alkyl thiophene), Lyuminestsentsiya spektrlar, MDR-23 monoxromator, Trimer, Monomer, Dimer.

Bugungi kunda noorganik quyosh elementlari bilan bir qatorda, elektr o'tkazuvchi polimerlar asosidagi organik quyosh elementlarini yaratish bo'yicha keng ko'lamlı tadqiqotlar olib borilmoqda. An'anaviy organik quyosh elementlarida elektr o'tkazuvchi polimer va noorganik material planar tuzilishga ega bo'lib, polimer qatlami aktiv muhit vazifasini o'taydi. Organik quyosh elementlarida aktiv modda sifatida Poly (3- alkyl thiophene) elektr o'tkazuvchi polimerlaridan keng foydalanimoqda. Poly (3- alkyl thiophene) lar guruhiba mansub Poly (3- decyl thiophene) (P3DT) elektr o'tkazuvchi polimeri taqiqlangan zona energiyasi ~1.9 eV bo'lgan p tipdag'i organic yarimo'tkazgich materialdir. P3DT elektr o'tkazuvchi polimeri quyosh nurlanish spektrining ko'rinvchi qismida keng yutilish polosasiga ega [1].

Ushbu ishda P3DT elektr o'tkazuvchi polimerining toluoldagi turli konsentratsiyali eritmalarining lyuminestsentsiya xossalari tadqiq qilingan.


Namunalarning lyuminestsentsiyasi N₂ lazeri ($\lambda = 337.1$ nm, $\tau = 6$ ns, $P \sim 15$ kWt) yordamida uyg'otildi. Lyuminestsentsiya spektrlari 0.75 bazali MDR-23 monoxromatori va impulsli signalni stroblab integrallovchi BCI-280 bokskar integratorini qo'llagan holda registratsiya qilindi.

P3DT polimerini toluoldagi 0.1 mg/ml konsentratsiyali eritmasi tayyorlab olindi. Ikkinchisi martada konsentratsiya 10 marta ortirildi. Uchinchi martada konsentratsiya 100 marta oshirildi. Har bir eritma uchun lyuminestsentsiya spektri olindi. Ular quyidagilar:

Birinchi grafikda, uchta gaus tashkil etuvchilari mavjud, 570 nm to'lqin uzunlikdagi polosa bitta molekula ya'ni monomerlar hosil qiladi, 613 nm dagi polosani dimerlar (ikkita molekula) tashkil qiladi, 622 nm dagi polosani trixmerlar (uchta molekulalar) hosil qilada. Ularning konsentratsiyasi intensivlikni harakterlaydi. Birinchi grafikda monomerlar hosil qilgan polosa eng katta chunki, monomerlarning konsentratsiyasi dimer va trixmerlarga nisbatan katta. Eritma konsentratsiyasi kamligi tufayli trimerlar konsentratsiyasi ham kam bo'ladi.

Ikkinchisi grafikda eritma konsentratsiyasi 10 marta oshirilgan. Natijada monomerlarning konsentratsiyasi kamaygan dimerlarning konsentratsiyasi ortgan, trixmerlarning polasasi o'ngga siljigan.

Uchunchi grafikda eritma konsentratsiyasi 100 marta ortirildi. Konsentratsiya kattaligi uchun monomerlar soni keskin tushib ketadi. Dimerlar hosil bo'lishi ortdi, natijada polosa intensivligi ko'tarildi. Trimerlar va ularning polosasi esa konsentratsiya oshishi bilan ortib bordi. Eritma konsentratsiyasi ortgan sari monomer





